



Received: June 10, 2025
Accepted: August 22, 2025
Available online: August 25, 2025

Shohida Axmedova

Tayanch doktorant
O'zbekiston davlat jahon tillar universiteti
Toshkent, O'zbekiston

PATRIK UAYTNING “XOLANING HIKOYASI” ASARIDA SIMVOLLARNING TIPOLOGIK TAHLILI

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola Patrik Uaytning 1948-yilda nashr etilgan “Xolaning hikoyasi” (“The Aunt’s Story”) romanida qo‘llanilgan simvollarning badiiy va falsafiy mazmuni hamda ularning tipologik xususiyatlarini tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Asarda bosh qahramon Teodora Gudmanning shaxsiy, ruhiy va psixologik rivojlanish yo‘li bir necha turdagi simvollar tizimi orqali ifodalanadi. Aynan shu ma’noda simvollar tizimi: arxetipik obrazlar, mifologik motivlar, diniy, tabiat va psixologik belgilar, uning individuatsiyalashuv jarayonida asosiy ma’no yuklovchi vosita bo‘lib xizmat qiladi. Muallif simvollar orqali inson ruhiyatining noaniq, ong osti darajadagi kechinmalarini, jamiyatdan uzilish holatini va ichki yuksalishni tasvirlashga uringan.

Tadqiqotda K.G. Yungning psixoanalitik individlashuv nazariyasi, N.Frayning arxetipik strukturalizmi, M.Eliade va P.Rikerning simvollarga oid diniy – mifologik, germevistik qarashlari asosiy nazariy tayanch sifatida tanlandi. Bu yondashuvlar asarda mavjud simvollarning nozik ma’nolarini talqin etishda muhim metodologik asos vazifasini o‘taydi.

Metodologik jihatdan maqola tipologik, tarixiy-madaniy, matn tahlili va kompleks tahlil usullarining uyg‘unligiga asoslanadi. Asarning uch qismli tuzilishi (Meroë, Jardin Exotique, Holstius) mifologik-arxetipik sayohat bosqichlari ya’ni, ajralish, parchalanish va yuksalish kabi bosqichlarni aks ettiradi. Simvol sifatida qo‘llanilgan ko‘zgu, miltiq, chaqmoq, qora atirgul, qirg‘iy, natilus chig‘anog‘i, olov kabi obrazlar Teodoraning ruhiy iztiroblarini, ruhiy

Shohida Akhmedova

PhD Student
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: alisherkamronbek@gmail.com
ORCID iD: 0009-0003-2278-6059

TYOPOLOGICAL ANALYSIS OF SYMBOLS IN PATRICK WHITE’S THE AUNT’S STORY

ABSTRACT

This article is dedicated to the symbolic and philosophical analysis of the images used in P.White’s 1948 novel “The Aunt’s Story”, as well as to the study of their typological characteristics. In the novel, the personal, spiritual, and psychological development of the protagonist, Theodora Goodman, is conveyed through a system of multiple symbolic layers. In this regard, the system of symbols archetypal images, mythological motifs, religious, natural, and psychological signs serves as a key semantic tool in her process of individuation. Through these symbols, the author attempts to depict the obscure and subconscious experiences of the human soul, the state of alienation from society, and the path of inner transcendence.

The theoretical foundation of this study draws upon C.G. Jung’s psychoanalytic theory of individuation, N.Frye’s archetypal structuralism, and the religious-mythological and hermeneutic views of M.Eliade and P.Ricoeur on symbolism. These approaches offer a rigorous methodological foundation for interpreting the symbolic layers present in the novel.

Methodologically, the article combines typological, historical-cultural, textual, and complex analytical methods. The novel’s tripartite structure Meroë, Jardin Exotique, and Holstius reflects the archetypal-mythological stages of the hero’s journey: separation, fragmentation, and elevation. Symbols such as the mirror, gun, lightning, black rose, hawk, nautilus shell, and fire reveal Theodora’s inner turmoil, moments of spiritual awakening, and the condition of isolation resulting from her divergence from societal norms.

uygʻonish onlarini va jamiyatga qarshi borish natijasida yakkalanish holatini ochib beradi.

Tadqiqot natijasida Teodoraning ruhiy zaif yoki telba holatga tushib qolishi aslida uning jamiyat tushunishga ojiz boʻlgan ruhiy yuksalishi va ilohiy haqiqati sari yoʻnalgan ichki sayohatining aksi sifatida talqin qilinadi. P.Uayt ushbu obraz orqali gʻarb adabiyotida kam uchraydigan yolgʻizlikni – yetuklik, begonalikni esa – najot timsoli sifatida koʻrsatadi. Xulosa qilib aytganda, P.Uayt Teodora obrazida oddiy xolani emas, balki ichki haqiqatni topishga jurʻat qilgan shaxsni, oʻzlikni anglash yoʻlida jamiyatdan ajralish ham iztirob, ham zafar belgisi ekanligini tasvirlaydi.

Kalit soʻzlar: Avstraliya, simvol, hayol, arxetip, ruhiy sayohat, yolgʻizlik, Teodora Gudman, xola, telbalik, jamiyat.

KIRISH

Avstraliyaning 20-asr adabiyoti yetuk namoyondasi, mohir yozuvchi P.Uayt 1912-yilda London shahrida tugʻilgan. U Avstraliyada ulgʻaygan boʻlsada taʼlimni Buyuk Britaniyaning nufuzli oliygohlarida oladi. Uning adabiyotdagi faoliyati 1939-yilda “Baxt Vodiysi” *“Happy Valley”* asarini chop etilishi bilan boshlanadi. Va butun ijod faoliyati davomida turli xil mavzular va muammolarni yoritadi. Uning “Xolaning hikoyasi” *“Aunt’s Story”*, “Inson daraxti” *“Tree of Man”*, “Voss”, “Boʻron koʻzi” *“The Eye of the Storm”* kabi asarlari dunyoga mashhur asarlardir. 1973-yilda P.Uayt Nobel mukofoti bilan taqdirlangan birinchi Avstraliyalik yozuvchiga aylandi [Encyclopedia Britannica, 2025]. Uning asarlarida asosan ijtimoiy hayotdan ajralib qolgan qahramonlar, insonning tashqi olam bilan ichki ruhiy kechinmalari tahlil qilinadi. P.Uayt nafaqat romanlar balki pyesalar, hikoyalar, sheʼrlar ham yozgan, lekin adabiyot ixlosmandlari uni romanlari bilan tanishadi. U 1990-yilda Sidneyda vafot etgan.

P.Uaytning “Xolaning hikoyasi” (1948) asari Avstraliya adabiyotida postmodernistik uslubi bilan, simvollar orqali qahramonlarning ruhiy va ijtimoiy muammolarini yoritgan boʻlib, u “Meroy”, “Gʻaroyib Bogʻ” va “Holistus” kabi qismlardan iborat. Asar turmushga chiqmagan, oʻrta yoshli ayol Teodora Gudmanning ham jismoniy, ham murakkab maʼnaviy-ruhiy sayohatini tasvirlaydi. Ushbu uch qismda P.Uayt Teodoraning haqiqat va komillikka boʻlgan ruhiy intilishini ifodalash uchun turli xil simvollar va motivlardan (*choʻldagi qoʻrgʻon Meroy, koʻzgular, atirgullar, qushlar, chigʻanoqlar va boshqalar*) foydalanadi. Romanning shakli va mazmuni modernistik hikoya usullari va mifik-arxetipik obrazlarni aks ettiradi, shuningdek, shaxsiyatning zaiflashuvi va haqiqatga intilish kabi postmodern – ekzistensial muammolarni ham yoritadi.

Ushbu tahlil qilingan asarning yaralish tarixiga kelsak, 1936-yilda P.Uayt

rassom R.D. Mestr bilan tanishadi. Ularning qiziqishlari va hayotdagi maqsadlari o'xshash bo'lganligi uchun ular do'stlashib qolishadi. Ikki ijodkor siyosiy va diniy obrazlar va simvollardan asarlarida keng foydalanadilar. P.Uayt o'zining birinchi asari "Baxt vodiysi"ni rassom De Mestr ga bag'ishlaydi va o'zining yozuvchi bo'lishida do'stining o'rni katta ekanligini ta'kidlaydi. De Mestrning 1947-yilda chizgan "Bog'dagi haykal" "*Figure in a Garden*" nomli portretidan ilhomlangan yozuvchi "Xolaning hikoyasi" asarini yozadi va asar muqovasida ushbu sur'atni chop ettiradi [patrickwhitecatalogue.com]. Voqealar ikkinchi jahon urushidan oldingi davrda Yevropada kechadi va Teodoraning aqlidan ozishi bilan yakunlanadi. Romanning "*Jardin Exotique*" ya'ni "G'aroyib bog'" deb nomlangan qismi adabiy tahlil qilingan bo'lib, olimlar bu qismdagi voqealar va personajlar faqat Teodoraning xayolida mavjud, deb hisoblashadi [Beston & Beston, 1975; 142]. Ushbu bo'lim romanning avvalgi qismlariga nisbatan ohang va uslubda sezilarli o'zgarishni ko'rsatib, Teodora shaxsiyatining ilgari ochilmagan yangi qirralarini ochib beradi. Hikoya uslubidagi keskin o'zgarish dastlab o'quvchilarni chalg'itishi mumkin. Chunki romanning birinchi qismidagi Teodora bilan sodir bo'lgan voqea - hodisalar ancha haqiqatga yaqin tasvirlangan va ikkinchi qism birinchisidan farq qiladi.

Ilmiy maqolamizning dolzarbligi shundaki, P.Uayt ijodi o'zbek adabiyotida hali yetarlicha o'rganilmagan. Va bu tahlil Avstraliya va o'zbek adabiyotshunosligida simvollarning arxetipik, psixologik, diniy xususiyatlarini qiyoslab o'rganish imkoniyatini beradi. Shuningdek maqolaning maqsadi – "Xolaning hikoyasi" asarida qo'llanilgan simvollarning tipologik shakllarini aniqlash va ularning nazariy asoslarini ochib berishdir.

TADQIQOT METODLARI

P.Uaytning "Xolaning hikoyasi" "*The Aunt's Story*" romani o'zining ko'p bosqichli semantik tuzilishi, murakkab ruhiy tasvirlari va arxetipik simvollarga boyligi bilan izchil va kompleks metodlar asosida o'rganishni talab etadi. Shu sababli ushbu maqolada bir vaqtning o'zida tipologik, tarixiy-madaniy, psixologik-falsafiy va kontekstual tahlil metodlari uyg'unlikda qo'llanildi.

Avvalambor, tipologik metod asosida romandagi simvollarning turlari aniqlandi. Ular arxetipik (qirg'iy, nautilus chig'anog'i, qora atirgul), diniy (halqa, nur, chaqmoq), psixologik (ko'zgu, eshik), ijtimoiy (mehmonxona, bashorat, kaktus), tabiat (olov, daraxtlar) kabi guruhlariga ajratildi. Har bir simvolning ma'naviy talqini, funksional roli va madaniy ahamiyati izchil tahlil qilindi. Bu yondashuv orqali Teodora Gudmanning o'zlikni anglash jarayonidagi bosqichlarni belgilovchi simvollar ajratib ko'rsatildi.

Tarixiy-madaniy usul yordamida esa asar yozilgan davr ya'ni, ikkinchi jahon urushi arafasidagi Yevropadagi ruhiy va ijtimoiy inqirozlar hisobga olindi. Ushbu davrda *mehmonxona*, *olov*, *yolg'izlik*, *bashorat* kabi simvollar XX asr o'rtalaridagi yolg'izlik va umidsizlik kabi ekzistensial kayfiyatni aks ettiruvchi belgilar sifatida talqin qilindi. Psixologik-falsafiy tahlil P.Uayt asaridagi simvollar orqali inson ruhiyatining ong osti qatlamlarini qanday aks ettirganini ochib beradi. Tadqiqotda K.G. Yungning va N.Frayning arxetipik nazariyasi, P.Rikorning *germenevtik talqini*,

M.Eliad tomonidan ilgari surilgan diniy-mifologik yondashuvi asosiy nazariy tayanch sifatida tanlandi. Teodoraning jamiyatdan ajralgan, yolg'izlikda o'zligini topishga intilgan holati aslida ilohiy haqiqat sari ichki yurish sifatida baholandi.

Nihoyat, matn tahlili metodi romanning kompozitsiyasi, stilistik vositalari va metaforik ifodalarini tahlil qilishda qo'llanildi. Bu yondashuv simvollarning ichki va tashqi kontekstdagi ma'nolarini ochib berishga xizmat qildi. Shuningdek, stilistik konvergensiya holatlari ya'ni bir nechta ifoda vositalarining bitta simvol atrofiga jamlanishi alohida qayd etildi. Umuman olganda P.Uayt asaridagi simvollarni ko'p metodologiyali asosda tahlil qilish orqali ularning nafaqat adabiy balki falsafiy, psixologik va ijtimoiy-madaniy darajadagi talqiniga erishildi. Ushbu uslubiy yondashuv maqolani zamonaviy adabiy tahlil standartlariga yaqinlashtirdi va tadqiqotning ilmiy ahamiyatini oshirdi.

NATIJALAR

Ushbu maqolada adabiyotshunoslikda simvol tushunchasiga oid umumiy va ilmiy qarashlar ko'rib chiqildi. Simvol (yunoncha *symbolon*) "belgi", "ramz" ma'nolarini anglatadi. Va adabiyot, san'at va falsafada tushuncha va hissiyotlarni simvollar orqali ifodalash usuli hisoblanadi. Simvol (ramz) biror narsa yoki tushunchani bilvosita ifodalaydi ya'ni, u ko'rinadigan shakl orqali ko'rinmaydigan ma'noni anglatadi. Simvolizm aniq tasvirlar orqali mavhum g'oyalarni ifodalash usuli hisoblanadi va biz yozuvchining ichki kechinmalari, munosabatini simvollar orqali tushunib olamiz [Umarov, 2004; 42]. Bu adabiy vosita turlicha talqin qilinishi mumkinligi va o'quvchilar aniq narsalarga har xil munosabatda bo'lishi mumkinligi sababli, adabiyotni tushunish va kitobxonlarni jalb qilish uchun eng murakkab badiiy vositadir. Shunday bo'lsa-da, simvolizmni tushunish va u nimaning ramzi ekanligini bilish she'riy va nasriy asarlar yaratish uchun muhim hisoblanadi [Glatch, 2025]. Simvollar adabiy xususiyatlariga ko'ra, tabiat simvollari, diniy, psixologik, arxetipik simvollar kabi turlarga bo'linadi. Adabiy tanqidchi D.Sharipova o'z ilmiy ishida simvollarni diaxronik va semantik aspektlariga ko'ra turlarga bo'lgan. Diaxronik xususiyatiga ko'ra, an'anaviy va xususiy; semantik xususiyatiga ko'ra esa, fitomorf; zoomorf; gender ramzlar ga bo'lib chiqqan [Sharipova, 2025; 14,17]. Kota Universiteti tadqiqotchisi esa simvollarni uch turga ya'ni, 1) shaxs simvollari, 2) diniy simvollar va 3) ijtimoiy-madaniy simvollarga ajratadi [Meghwal, 2021; 38]. Yana bir adabiyotchi olim O.Ochilov o'z ilmiy ishida simvollarning sodd va murakkab turlari bor ekanligini yozadi. Bunda u sodd simvollarga turli tovushlar, qo'l ishoralarini misol qilib keltirsa, murakkab simvollarga turli buyumlar, tabiatdagi o'simlik va hayvonlarni keltiradi [Ochilov, 2018; 20]. Simvol tushunchasi K.Yung, P.Rikor, M.Eliad, N.Frey kabi olimlar tomonidan turlicha talqin qilingan. K.Yung simvolni inson ongida mavjud bo'lgan arxetiplarning ifodasi deb hisoblaydi. Yung uchun simvol – bu ong va ongsizlik o'rtasidagi ko'prik va u orqali inson o'zini anglaydi [Yung, 1964; 73]. Rikor esa simvolni ko'p ma'nolilik manbai sifatida qaraydi [Ricoeur, 1967; 10]. Eliad esa – muqaddaslik belgisi sifatida tahlil qilgan. U simvolni inson va muqaddas olam o'rtasidagi metafizik aloqa vositasi sifatida qaraydi [Eliade, 1963; 26]. Shu bilan birga Frey simvolni mifologik strukturalarning badiiy shakli sifatida talqin qilib, uni qahramonlik, qurbonlik va qayta tug'ilish

kabi universal mavzular bilan bog‘laydi [Frye, 1957; 102]. Bu nazariy asoslar P.Uayt ijodidagi simvollarni kengroq tahlil qilish imkonini beradi. Yozuvchi asarlarini tahlil qilish orqali shu aniq bo‘ldiki, yozuvchi asosan diniy, mifologik-arxetipik simvollariga murojat qiladi. Nobel mukofoti ham yozuvchining ayni shu mahorati sababidan taqdim qilinadi. Quйда berilgan jadvalda “Xolaning hikoyasi” asari tahlili davomida uchraydigan simvollarni bir nechta tiplarga ajratib chiqdik.

“Xolaning hikoyasi” asaridagi simvollarning tipologik jadvali:

Simvol	Tipologiyasi	Ma’nosi	Nazariy qarashlar
Meroy	Arxetipik	Orzular uyi, ilohiy vatan, tinchlik simvoli	M.Eliad – muqaddas makon g‘oyasi
Ko‘zgu	Psixologik	Ong va ongsizlik, ichki dunyo va tashqi voqelik o‘rtasidagi chegara	K.Yungning o‘zlik, ichki men arxetipi
Chaqmoq	Tabiat / Diniy	Ilhom, yuksalish, ruhiy uyg‘onish	M.Eliad – muqaddas nur
Miltiq	Ijtimoiy / Psixologik	Kuch, isyon, mustaqillik, jamiyatga qarshi kurash	Yung-animus arxetipi Rikor – dual simvol
Qirg‘iy	Tabiat /psixologik	Xabar, xavf, ikkinchi men, ichki qarama-qarshilik	Yung – ichki men Frey - ulg‘ayish
Natilus chig‘anog‘i	Arxetipik	Ozodlik, haqiqat sari illyuzion yo‘l	Eliad – qayta tug‘ilish
Qora atirgul	Germenevtik / Estetik	Ichki donolik, ruhiy yuksalish	Rikor – ko‘p ma’nolilik
Bola obrazlari (Lou, Katina, Zak)	Arxetipik	Ruhiy rivojlanish bosqichlari, poklik, umid	Yung – abadiy bola arxetipi
Bashoratlilar (Spaffort, sayyoh)	Psixologik	Oldindan ogohlantirish, haqiqat sari og‘riqli yo‘lni ko‘rsatish	Rikor- simvol orqali haqiqatni ochish
Mehmonxona (Hotel du Midi)	Ijtimoiy/Siyosiy	Illyuziya, ruhiy tuzoq, jamiyat ramzi	Rikor- illuziya va haqiqat
Olov	Arxetipik / Diniy	Halokat va poklanish, haqiqatni ochuvchi kuch	Eliad – poklanish
Kaktus	Tabiat / Psixologik	Yolg‘izlik, mustahkamlik, himoya	Eliad – yolg‘izlik
Doktor Xolstus	Shaxs simvoli / Arxetipik	Donolik, najot, ichki haqiqatni ochib beruvchi yo‘lboshchi	Yung – arxetipik

Ushbu jadvalda berilgan simvollar ma’no jihatdan o‘zaro birlashib, asardagi asosiy g‘oyani ya’ni, ruhiy uyg‘onish, najot, o‘zlikni anglash kabi kechinmalarni tasvirlaydi. Masalan, ko‘zgu, chaqmoq, olov kabi simvollar ruhiy uyg‘onish hodisalarini ifodalaydi. Bunda K.Yungning “self” g‘oyasiga tayangan holda ko‘zgu orqali qahramon ichki meni bilan to‘qnashadi [Yung, 1964; 128]. Qig‘iy, miltiq simvollar insonning ichki ziddiyati va kuch manbai. Meroy, bola, chig‘anoq kabi simvollar Eliad ta’kidlaganidek – qayta tug‘ilish, yangilanish ma’nolarini beradi [Eliade, 1963; 26]. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, P.Uayt simvollarni insonning ichki, ruhiy kechinmalari

bilan uzviy bog'laydi. Yozuvchi uchun simvollar ruhiy holatning badiiy tildagi tasviri hisoblanadi.

MUNOZARA

P.Uayt asarlarida simvollar orqali inson ichki fazilatlarini ko'rsatadi. "Xolaning hikoyasi" romanida simvollar nafaqat badiiy vosita balki, qahramon ichki inqirozini ochuvchi funksiya sifatida xizmat qiladi. Har bir simvol orqali yozuvchi insonning ong va ongsizlik, haqiqat va hayol o'rtasidagi ichki kurashini ifodalaydi.

Asarning birinchi qismi *Meroy* deb nomlanadi va *orzular uyi* sifatida talqin qilinadi. Meroy – Avstraliyaning chekka bir qishlog'i bo'lib, Gudmanlar oilasining bir necha yillik mulki hisoblanadi. Qadimgi tarixda Meroy Xabashiston (Efiopiya) poytaxti bo'lgan – afsonaviy "Baxt vodiysi" utopiyasi sifatida tanilgan. P.Uayt bu nomni qo'llash orqali Gudmanlar fermasini o'tmishning o'ziga xos afsonaviy joyiga qiyoslaydi [Bredi, 1981; 70]. Bu joy Teodoraning haqiqiy bolalik uyi va hayoliy mamlakati bo'lib, Teodora butun umri davomida unga qaytishga intiladi. Eliad nazariyasiga ko'ra, bu muqaddas makon konsepsiyasiga mos ravishda inson ruhiy izlanish jarayonida asl manbaga, boshlang'ich holatga qaytish istagini bildiradi [Eliade, 1959; 21]. Quyida keltirilgan parchada Teodoraning otasi *Meroy* deb nomlanuvchi o'sha afsonaviy mamlakatni tanishtiradi.

Ota tomog'ini yelpib dedi: "Gerodot buni kitobida yozgan. Bu ham kulgili, ham g'alati edi. Timsoh esa Meroydan uncha uzoq bo'lmagan Nil deb ataluvchi daryoda yotardi." Teodora e'tiroz bildirdi: "Ammo Meroyda faqat soy bor-ku". Ota javob berdi: "Efiopiyaning qora tanlilar o'lkasida yana bir Meroy bor. U kimsasiz joy".

(Fanning his larynx, Father said. Herodotus wrote this in a book. It was both funny and strange. And the crocodile lay in a river called the Nile, which flowed not far from Meroë. But at Meroë there is only a creek, Theodora said. 'There is another Meroë, said Father, a dead place, in the black country of Ethiopia.) [White, 1948; 25].

Natali fikriga ko'ra, Teodoraning otasi Meroyning tashqi ko'rinishiga romantik va o'ziga xos ruh bag'ishlagan. Xuddi Gerodot bu joyni (Meroyni) Baxtlar vodiysi deb atagani kabi Teodora uchun ham baxt vodiysiga aylangan [Natale, 2016; 38]. Tanqidchi D.Loneyning fikriga ko'ra, Teodora yaxshilik va yomonlik timsollari bo'lgan epik qahramonlar o'rtasida yashagan, ya'ni bolaligida mehribon otasi ya'ni yaxshilik timsoli Odissey bilan va otasining o'limidan so'ng mehrsiz onasi yomonlik timsoli Polifem bilan hayot kechiradi. Teodora mana shu ikki yo'l o'rtasida o'z ichki haqiqatini qidiradi va ma'naviy va ruhiy sayohatga o'tlanadi [Loney, 1982; 483-400].

Asarda bashorat va yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi personajlar qahramonga yo'l ko'rsatuvchi Yung ta'limotidagi donishmand arxetipi sifatida talqin qilindi. Bunga sirli sayyohni misol qilib keltirishimiz mumkin. Asardagi yunon violonchelchisi unga Gretsiya yoki Meroy kabi jonsiz narsalarga to'la kimsasiz joylarda bo'lish yaxshi ekanligini aytadi, chunki bunday kimsasiz joylarda haqiqatni ko'rish osonroq deb aytadi:

"Bilasizmi, Gretsiya kimsasiz mamlakat. U faqat suyaklardan iborat. Xuddi

Meroe kabi”, dedi Teodora. “Rostanmi?” dedi Moraitis. “Men ham suyaklar mam-lakatidan kelganman”. “Bu yaxshi,” dedi Moraitis jiddiy ohangda. “Shunday bo’lsa, ko’rish osonroq bo’ladi.”

(Greece, you see, is a bare country. It is all bones. Like Meroë, said Theodora. Please?’ said Moraitis. ‘I too come from a country of bones. ‘That is good,’ said Mora-itis solemnly. It is easier to see.) [White, 1948; 106].

Notanish kishi esa unga sirli bashoratni aytadi: “Sen ko’p g’alati narsalarni ko’rasan, Teodora Gudman. Sen ularni ko’rasan, chunki seni ko’zlaring ko’ra oladi. Ular senga jarohat yetkazishadi. Lekin baribir omon qolasan”.

(‘You’ll see a lot of funny things, Theodora Goodman. You’ll see them because you’ve eyes to see. And they’ll break you. But perhaps you’ll survive. No girl that was thrown down by lightning on her twelfth birthday, and then got up again, is going to be swallowed easy by rivers of fire’) [White, 1948; 45].

Adabiyotshunos Tacey fikria ko’ra, ushbu bashorat orqali yozuvchi bosh qah-ramonni hamma qatori oddiy hayot kechira olmasligini, bunga esa moddiyatga taya-nib qolgan jamiyatda Teodoradek ko’rimsiz, ichki haqiqatlari sari intiluvchi shaxslar qabul qilinmasligini tasvirlaydi. Natijada Teodora yolg’izlanib qoladi va o’zining ilo-hiy maqsadlari sari hayoliy sayohat qiladi [Tacey, 1979]. Yana bir Teodora uchun yo’l ko’rsatuvchi obrazlardan biri uning maktabdagi ustoz *Spaffort xonim* bo’lib, u ham donishmand arxetipi sifatida talqin qilinadi.

“Sen haqiqiy hayotni ko’ra olasan. Ehtimol, xunuk bo’lib ulg’ayasan va hayo-tda oddiy poyabzalda yurasan. Halol bo’lganing uchun, befarzand bo’lganing uchun ham hurmat qilinasan ham nafratga uchrayсан. Haykal ham yasamaysan, she’r ham yozmaysan, musiqa bastalamaysan lekin uning ohangidan mast bo’lasan...”.

(You will see clearly, beyond the bone. You will grow up probably ugly, and walk through life in sensible shoes. Because you are honest, and because you are bar-ren, you will be both honoured and despised. You will never make a statue, nor write a poem. Although you will be torn by all the agonies of music, you are not creative. You have not the artist’s vanity, which is moved finally to express itself in its objects) [White, 1948; 62].

Ushbu bilvosita berilgan *bashorat* Teodoraning asar so’ngidagi taqdirini ochib bergandek go’yo. Darhaqiqat, Teodoraning oddiy ayollar haqidagi qarashlari o’zgacha va ularga o’xshashga harakat qilmasligini ko’ramiz. U ichki kechinmalarini boricha aytadi, balki shuning uchun o’z juftini topishda qiynaladi. Atrofidagi odamlar uning qarashlarini qadrlamaydi, uni shunchaki g’alati turmushga chiqmagan ayol sifatida ko’radi. Teodora ko’p narsalarni anglab yetadi, lekin buning natijasida u yolg’izlik, nafrat va hurmatsizlik kabi munosabatlarga uchraydi [Beston & Beston, 1975].

Asar markazida turgan ko’zgu obrazi Teodoraning ichki ruhiy holatini tasvir-lash uchun foydalaniladi. Feber fikricha, ko’zgularning ramziy ma’nosi nafaqat u aks ettiradigan narsalar bilan bog’liq, balki ularda ko’rinadigan narsalarga ham bog’liq [Feber, 2007; 126]. Yungning “self” va “shadow” (men va ichki men) arxetiplari naz-ariyasiga ko’ra, inson o’zini to’liq anglash uchun, avvalo, o’zidagi qorong’u, yashirin tomonlari bilan yuzma-yuz kelishi zarur [Yung, 1964; 162]. Teodora ko’zguga qa-

rashdan cho'chiydi, chunki u o'z ichidagi haqiqiy *men* ni ko'rishdan qo'rqadi. Quyida keltirilgan parchada Teodora Meroyda bolalik paytida tunlari uy yo'laklaridagi ko'zgular orasidan o'tib, ko'zgu kabi ko'rinuvchi eshik tomon yuradigan aksni ko'radi va ostonaga qarashga qo'rqadi:

Shunday qilib, Teodora tunda uyg'onganida, bu voqea sodir bo'layotganini his etdi. Uning yuragi muzlab qolgandi. Yonib turgan shamdan og'ir tutun pardasi tushardi. Sochlariga ilakishib qolgan tungi ko'ylagining burmalari erib tushayotgan mumday, uning tanasidan pastga oqardi. U Meroyning yo'laklarida yurar, go'yo ko'zgular orasidan o'tayotgan aksday edi. U eshikdan ko'ra ko'proq ko'zga o'xshar edi, endi esa qarashga qo'rqadigan eshik tomon yo'l olardi.

(So that when Theodora woke in the night, she heard that it was happening. Her heart was cold. Heavy skeins of smoke fell from the lit candle. The folds of her nightgown fell from her like folds of falling wax, from which her hair streamed. She was walking in the passages of Meroë, a reflection walking through mirrors, towards the door which had always been more mirror than door, and at which she was now afraid to look) [White, 1948; 83].

Bu g'aroyib hodisa Teodoraning odatiy voqelikdan tashqari dunyoni endigina anglay boshlaganini ko'rsatadi. Ko'zgu-eshik oddiy dunyo va hayoliy ichki dunyo o'rtasidagi nozik chegarani ifodalaydi. Uning qo'rquvi kelgusidagi ichki ziddiyatlaridan darak beradi. U ko'zgu orqali yanada chuqurroq haqiqatni ko'rishni istaydi, ammo ko'zguning boshqa tomonida o'zini yo'qotib qo'yishdan cho'chiydi [Michael & Wolfe, 2007]. Shunday qilib, *Meroy uyi* o'zining xira ko'zgulari va yashirin yo'laklari, o'rganilmagan tasavvuriy xonalari bilan Teodora ruhiyatining timsoliga aylanadi.

Asarda yana bir tabiat simvollaridan biri chaqmoq obrazini ko'rishimiz mumkin. *Chaqmoq* an'anaviy tarzda ilohiy olov, ma'rifat va poklanishni anglatadi. Chaqmoq qadimgi yunon, rim afsonaviy xudolarining o'z kuchini, xis-tuyg'ularini ifodalovchi simvol sifatida ko'rilgan [Feber, 2007; 116]. Teodorani chaqmoq urishi voqeasi oddiy tabiiy hodisa emas, balki metafizik jarayon sifatida ko'rishimiz mumkin. Eliade ta'riflaganidek, chaqmoq ilohiy nur timsoli bo'lib, u insonni kundalik hayotdan muqaddaslik olamiga olib kiradi [Eliade, 1963; 120]. O'sha chaqmoq urgan ondan o'ziga dunyoni anglash, o'zligini qidirib topish kabi maqsadlarni qo'yadi, garchi boshqalar uni tushunmasada. Ya'ni K.Yungning "individuallashuv jarayoni" ga ko'ra, ong va ongsizlik ziddiyatidan chiqishga intiladi [Jung, 1964; 96].

Teodora Gudman bu voqeaga sira ham ajablanmadi. U o'n ikki yoshga to'lgan kuni hovlidagi katta eman daraxtini chaqmoq urdi va Teodora uch yuz yardlik masofadan yerga yiqilib tushdi. Gerti buni Xudoning ishi ekanligini aytdi. Ammo Teodora o'rnidan turdi va bu voqeaga e'tibor qilmadi. Bu huddi Perl Braun, onasining kayfiyati va Suriyalik kabi tushuntirib bo'lmaydigan hodisalardan biri edi.

Theodora Goodman was altogether unsurprised. On her twelfth birthday the big oak in front was struck by lightning, and from three hundred yards Theodora was thrown to the ground. Gertie said it was an act of God. But Theodora picked herself up, out of the event, it was one of the things that happened, and which it was still not

possible to explain, like Pearl Brawne, and Mother's moods, and the Syrian. [White, 1948; 41]

Asardagi yana bir e'tiborga molik simvollardan biri bu – Teodora miltiq bilan otib o'ldirgan *qizil ko'zli qirg'iydir*. *Qirg'iy* qadimgi yunon afsonalariga ko'ra muqaddas qush, xabar yetkazuvchi va tezlik ramzi hisoblangan [Feber, 2007; 96]. Asarda qirg'iy qo'y jasadi ustida turib, sovuqqonlik bilan uning ichak-chovoqlarini tanasidan ajratayotgani tasvirlangan. Yosh Teodora miltiqni qo'liga olib, qirg'iyi yerga qulatadi. Chawla bu hodisaning ramziy ma'nosi ichki *nafratni o'ldirish va ruhiy yengil bo'lish* deya ta'riflaydi [Chawla & Gaurav, 2022; 2510]. Tanqidchi L.Silva esa boshqa fikrni keltiradi, ya'ni “qirg'iyning ozuqa topish uchun xattoki chirkin narsalarni yorib o'tishi – Teodoraning yolg'on hayollarni yorib o'tib, haqiqatni izlash yo'lidagi aqliy va ma'naviy intilishining ramzidir” deydi. Biroq, qirg'iyi o'ldirar ekan, Teodora o'zi bilmagan holda o'z halokatini bashorat qiladi. Ya'ni asar so'ngida jismonan bo'lmasada ruhan va qalban so'nadi [Silva, 1995; 1178]. Shunday qilib, miltiq bilan qirg'iyi o'ldirar ekan Teodora boshqalar ko'z o'ngida sodda, nozik qizdan kuchli, ziyrak ayolga aylanadi. Avstraliyalik tadqiqotchi Syuzanga ko'ra, *qirg'iy* Teodora uchun arxetipik ikkinchi *meni* ning ramzi hisoblanadi. Ya'ni bu yerda yozuvchi Yungning *o'zini anglash* va Freyning *arxetipik* nazariyalaridan ilhomlangan deya taxmin qilishadi, garchi P.Uaytning o'zi buni inkor etsada [Lever, 2003]. Shu bilan birga Teodoraning miltiqdan onasining qarshiligiga qaramay foydalana olishi ham uni boshqalardan ajratib turadi. *Miltiq* ham Teodoraning ichki tug'yonlari va jamiyat qonunlari o'rtasidagi ziddiyatning bir timsolidir. *Miltiq* erkinlik, qo'rquv, havfsizlik, mardlik, tengsizlik kabi bir-biriga qarama-qarshi ramziy ma'nolarni anglatadi [Metzl, 2019]. Demak, jamiyatning qarashlariga ko'ra, latofatli, go'zal ayollar erkaklarga xos bo'lgan quroldan foydalanmaydi. Xuddi nafislik va kuchlilik bir ayol tanasida mujassam bo'lmagani kabi. Ushbu qirg'iy voqeasi Teodoraga uylanish uchun nomzod bo'lgan Frenk Parrotni ham ikkilantirib qo'yadi. Va buning natijasida Teodora turmush qurish imkoniyatini miltiq bilan otib yo'q qilgandek bo'ladi va shunday deydi: “*Men umrimning so'nggi onlarigacha o'zimni xor qilaman*” (*I shall continue to destroy myself, right down to the last of my several lives*) [White, 1948; 70]. Bu gaplarini Teodora o'yinchoq o'rdakni otgan paytida ham takrorlaydi, u paytda yana bir kuyovlikka nomzod Hantley Klark bilan birga edi [Ashcroft, 2018]. Demak, qirg'iy va miltiq faqatgina kuchlilik, ziyraklik, erkinlikni ramzi sifatida emas, balki qo'rquv va afsusni ham ifodalab kelmoqda. Ya'ni Yung nazariyasiga ko'ra, qirg'iy bir tomondan yovvoyi instinkt, ikkinchi tomondan erkinlikni bildiradi, Freyga ko'ra esa qirg'iy qahramonning sinovdan o'tish jarayonini bildiradi. Miltiq esa Yungning animus arxetipi bo'lib, ayol psixikasidagi yashirin erkak, iroda ramzi sifatida keladi [Jung, 1964; 226].

Teodora onasining vafotidan so'ng Avstraliyani tark etib, Yevropaga sayohat qiladi va bir muddat Fransiyadagi Hotel du Midi mehmonxonasida istiqomat qiladi. Mehmonxonaning bog'i Jardin Ekzotik deb ataladi. Jardin Ekzotik bu Fransiya janubidagi *kaktuslar* maydoni bo'lib, Teodoraning ichki holatining ramziy ifodasidir. Kaktus o'simligi chidamli, tikanli va boshqa o'simliklardan uzoqda o'sadi, xuddiki

Teodora ham bu Yevropa muhitida yolg'iz, chetdan kelgan va to'g'ri so'z inson edi. Mehmonxonada Teodora bir nechta do'stlar orttiradi. Yozuvchi mehmonxona va u yerda jam bo'lgan turli millatli qahramonlar timsolida Yevropa va Yevropa jamiyatining urushdan oldingi madaniy, ruhiy tanazzulini va materializm hukmronligiga ishora qiladi. Ular bu mehmonxonadan chiqib keta olishmaydi. Chunki *Hotel du Midi* mehmonxonasida to'xtab qolish va tuzoqqa tushish ehtimoli bor edi. Bir nechta qahramonlar uning chegaralaridan chiqa olmayotgandek ko'rinadi. Teodoraning o'zi har safar sayohatni davom ettirishga qaror qilganda, mehmonxonadagi biror qiziqarli narsa yoki muammo uni orqaga tortadi. Shunday qilib, *mehmonxona* haqiqiy hayotning vasvasalari va aldovlarini ramziy ma'noda ifodalaydi. Eliad ta'riflaganidek, moddiy hayot insonni muqaddaslikdan uzoqlashtiradi [Eliade, 1963; 10].

Ikkinchi qismning asosiy simvoli *natilus chig'anog'i* bo'lib, u mehmonlardan biri Madam Rapallo tomonidan e'zozlanadi. Uning spiral shaklidagi chig'anog'i, tabiiy me'morchilik durdonasi, hayot safarining ramzi bo'lishi mumkin. Har bir buramasi o'sish va donolik bosqichini ifodalaydi [Encyclopedia of archetypes]. P.Uaytning *natilus chig'anog'ini* ozodlik ramzi sifatida keltiradi. Go'yoki, chig'anoqning parchalanishi Teodora va boshqa qahramonlarga erkinlik bergandek. Teodoraning galyutsinatsiyalarida chig'anoq haqiqatan ham tirikdek ko'rinadi: "*Natilus doimiy katalashib boradi, biroq sirli tarzda gulladi va kenggaydi. Du Midi mehmonxonasining devorlari go'yo ochilayotgandek edi*".

(*The nautilus flowered and flowed, as pervasive but evasive as experience. The walls of the Hôtel du Midi almost opened out*) [White, 1948; 183]. Bu tasvir birinchi qismdagi ko'zguli eshikni eslatadi, *natilus* ham odatiy chegaralardan tashqariga, ozodlik sari olib chiquvchi yana bir kalitga o'xshaydi. Biroq, *natilus* va'da qilgan ozodlik aslida sarob edi. Kun kelib bu chig'anoq yerga tushib parchalanadi. Go'zal sarob yo'q bo'ladi, mehmonxona yonib ketadi, barcha illyuziyalar fosh bo'ladi. Ko'p o'tmay, haqiqiy (ehtimol xayoliy) olov mehmonxonani qamrab oladi, mehmonlar qochib ketishadi. Va nihoyat Teodorani bu fantaziya to'ridan chiqishga majbur qiladi. Demak *olov* ham qaysidir ma'noda haqiqatni to'sib turgan illuziyani yo'q qiladi. Va M.Eliadning *o'lim va qayta tug'ilish* g'oyasiga asosan olovni halokat va poklanish ramzi sifatida talqin qilishimiz mumkin [Eliade, 1963]. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, *natilus chig'anog'ining* vayron bo'lishi va undan keyingi yong'in Teodoraning haqiqat onini ifodalaydi [Arimitsu, 1985].

Uchinchi qismdagi Teodoraning Amerika tomon sayohati asarning kulminatsion qismi hisoblanadi. U poyezdda sayohat qiladi, biroq Amerikaning janubig'arbida ya'ni cho'lga o'xshash kengliklarda noma'lum bekatda poyezddan tushib qoladi. Geografik jihatdan u Avstraliyaga qaytmagan bo'lsa-da, hayolan Habashiston sahrosiga – Meroyga kirib boradi. U qishloq chekkasidagi oddiy kulbadan boshpana topadi, keyinchalik hayolida bu joyni Yangi Habashiston deb ataydi. Tushkun ruhiy holatga tushgan Teodora *doktor Xolstus* yordamida ruhiy kasalliklar shifoxonasiga yuboriladi. Doktor Xolstus donolik va najot timsolida gavdalandi. Chunki u hayotda yashayotgan Teodora haqiqat ko'zgusini tutadi va uni davolanish uchun shifokorlarga topshiradi. Teodorani olib ketishayotganida P.Uayt Teodorani atirgul qadalgan

qora shlyapa kiygan ko‘rinishda tasvirlaydi.

“*Shlyapa to‘g‘ri kiyilgan, ammo o‘ziga xos hayotga ega bo‘lgan atirgul titrar va yaltirardi*”. (*The hat sat straight, but the doubtful rose trembled and glittered, leading a life of its own*) [White, 1948; 272].

Bu parcha romanning so‘nggi satri bo‘lib, u ham o‘ziga xos ramziy ma’noga ega. *Shlyapaning* to‘g‘ri turishi Teodoraning tashqi qiyofasi osoyishta ekanligini, shlyapadagi titrayotgan sun‘iy *atirgul* go‘yo Teodoraning ichki dunyosini – uning ruhini aks ettirayotgandek. Tanqidchilar bu atirgulni Teodoraning yashirin donoligi ramzi sifatida talqin qilishgan. Masalan, A.Riem ta’kidlashicha, qora atirgul xuddi ilohiy donolikning yashirin guli kabi, Teodoraning ichki ko‘rinishini ifodalaydi va u oddiy dunyodan tashqarida o‘z hayotini davom ettiradi. Barcha muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, Teodorada nimadir ro‘yobga chiqdi yoki tirik qoldi [Natale, 2016]. Bundan tashqari asarning birinchi qismida Meroy uyida atirgullar bog‘i bor edi. Bu bog‘ni Teodoraning onasi Gudman xonim yaratgan bo‘lib, uning uchun atirgullar go‘zallik va uyni bezab turuvchi vosita sifatida ko‘rilgan. Tabiatan Gudman xonim faqat chiroyli narsalarga, hashamatga e’tiborli ayol edi. Teodora esa chiroyli atirgullar bilan birgalikda o‘zagini hashorotlar yeb bitirayotgan atirgullarni ham ko‘radi. U chiroyli va hunuk narsalarni birdek qabul qila oladi [www.enotes.com]. Asar tahlili davomida mana shunday bir – biriga qarama – qarshi ma’nolarga ega bo‘lgan simvollar P.Rikerning simvollarning germeneytik tahlil yondoshuvini talab etadi [Ricoeur, 1967; 9]. Uning fikricha simvollar fikrlashni kengaytiradi va bir ramzning bir nechta ma’nolarga ega bo‘lishi asarni chuqurroq tahlil qilishga undaydi. Masalan, *atirgul*, *olov*, *multiq* kabi simvollarning salbiy va ijobiy ma’nolarini ko‘rib chiqdik. P.Uayt ushbu obrazlar orqali hayotda go‘zallik va hunuklik, yaxshi va yomon, haqiqat va yolg‘on, o‘lim va hayot bir – biridan ajralmas tushunchalar ushbu asar orqali yetkazadi [Pellauer & Bernard, 2025].

Yana bir muhim simvoldan biri asardagi *bola* obrazidir. Asar davomida Teodora uchta bola bilan muloqotda bo‘ladi. Ular Teodoraning jiyani Lou, mehmonxonadagi Katina va asarning so‘nggi qismida kelgan Zak ismli bola. Britaniya universiteti olimlari V.Shermbrucker fikriga ko‘ra, asardagi bu uch nafar bolalar o‘z ramziy talqiniga ega. Har bir bola Teodoraning ruhan rivojlanishining bosqichlari hisoblanadi. Masalan, Lou bilan muloqot Teodoraning otasining o‘limidan keyingi hayoti, yolg‘izlik, ona tomonidan kamsitilish kabi kechinmalari bilan yuzlashtiradi. Katina bilan bo‘lgan davr esa, ichki menini izlash uchun uydan ketishi, hayol va hayot o‘rtasidagi ziddiyatlar ramzidir. Zak ismli bola bilan uchrashuv esa Teodorani yana o‘sha beg‘ubor bolalik davriga, Meroyga qaytargandek bo‘ladi [Schermbrucker, 1966; 88-91]. K. Yungning arxetipik qarashlariga ko‘ra, bolalar – qutqaruvchi, ruhan yangilanish, umid kabi ramziy ma’nolarni ifodalaydi. Qolaversa, P.Uaytning ekzistensial yondashuviga ko‘ra, bola timsolida qahramonlar ichki kechinmalari, qiyin o‘tgan bolaligi bilan yuzlashish kabi tasvirlarni tahlil qilishimiz mumkin.

P.Uayt asarning har bir qismida epigraflardan foydalanadi. Ularning har biri ushbu qismning semantik va falsafiy mazmunini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. Birinchi qism boshlanishida quyidagi epigraf keltiriladi:

“U insonning o‘ziga eng yaqin bo‘lgan fikrdoshlari bilan ham gaplashishi va tushunilishi qanchalik cheklangan ekanligini o‘ylardi. Shuningdek, tez orada inson ruhi hech kimning qadam tovushi eshitilmaydigan ruhiy yo‘lning yagona manziliga yetib borishini ham tasavvur qilardi” (O.Shriner).

“She thought of the narrowness of the limits within which a human soul may speak and be understood by its nearest of mental kin, of how soon it reaches that solitary land of the individual experience, in which no fellow footfall is ever heard.” By Olive Schreiner [White, 1948; 12]. Ya’ni birinchi qismda kitobxon Teodora Gudmanning oilasi, ayniqsa, onasi bilan tushunarsiz va ziddiyatli munosabatlari, Meroydagi yolg‘izligi, insoniy va ruhiy aloqalar chegaralanganligi haqida bilib oladi. Ikkinchi qismda esa, dunyo va insoniyat yaxlit emasligini, inson ruhiyati umri davomida parchalanishi mumkinligini tushunamiz. Quyida keltirilgan epigraf ham shu ma’noda qo‘llaniladi: *“Henceforward we walk split into myriad fragments... we walk against a united world, asserting our dividedness... The great fragmentation of maturity.” - Henry Miller. (Bundan buyon biz son-sanoqsiz bo‘laklarga bo‘linib yuramiz... biz yaxlit dunyoga qarshi chiqib, parchalanganimizni ta’kidlaymiz... Bu - yetuklikning ulkan parchalanishidir.) Genri Miller [White, 1948; 129].*

Uchinchi qismning epigrafida keltirilgan O.Shrinerning so‘zlari quyidagi ma’noda keladi: *“Hayotingiz qancha haqiqat bo‘lganida, men uchun siz shuncha aqldan ozgansiz.” (When your life is most real, to me you are mad) [White, 1948; 241].* Teodoraning hayoti endi tom ma’noda reallikka erishadi lekin boshqalar uchun telbalik bo‘lib ko‘rinadi. Moddiy va ikki yuzlamachilik qadrlanadigan jamiyatda soda, o‘z qarashlariga ega Teodora telbadek edi. Yoki haqiqatni anglab yetgan Teodora uchun madaniy tanazzulga yuz tutgan jamiyat odamlari telba edi. Teodora jismonan Meroyga qaytmagan bo‘lsada, o‘z idealidagi hayoliy dunyosiga – Xabashistondagi Meroyga qaytgan edi [Wittman, 2015]. Demak har bir keltirilgan epigraf tom ma’noda bosh qahramonning rivojlanish bosqichlarini yoritib beradi. Ya’ni, avval ruhiy yolg‘izlik, keyin esa ruhiy parchalanish va nihoyat ruhiy uyg‘onish kabi.

Yozuvchi ushbu asarida insoniyatning eng muhim xususiyatlariga, jumladan aqllilik va telbalik, haqiqat va xayol o‘rtasidagi munosabatlar, hamda mavjudlik haqidagi fikrlarni ifodalashga e’tibor qaratadi. Voqealar avvalida Teodora haqiqatni izlash, ya’ni o‘zlikni, shaxsiyatini topishga intiladi. Asar qahramonlari ma’naviy jihatdan ikki toifaga ajratiladi: tiriklar va o‘liklar. Tiriklar bu haqiqat izlovchilardir. Haqiqat izlovchilar shunchaki hayotning yanada to‘laqonli shaklini emas, balki diniy ma’noda najot yoki tanazzulni topadilar. Ular ijtimoiy qarashlarga bog‘langan, boylik va olijanoblikni orzu qiladigan moddiyatchi qahramonlarga qarama-qarshi qo‘yiladi [Hansson, 2001].

P.Uayt ko‘pincha asarlarida ilohiy, arxetipik obrazlarga murojat qiladi. Masalan “Voss” asaridagi bosh qahramon ham Muso Alayhissalomga qiyoslanadi. Demak “Xolaning hikoyasi” asarida ham shu usulni ko‘rishimiz mumkin. Tanqidchilar Teodoraning sayohatini ko‘pincha zamonaviy Odissey yoki afsonaviy izlanish sifatida talqin etadilar. Asar Gomerning *Odisseyasi* yoki Dantening *Ilohiy komediyasi* kabi sinovlar orqali bosib o‘tiladigan ma’naviy yo‘lga o‘xshash tuzilgan. Aslida, “Xolan-

ing hikoyasi” Odissey yoki Uliisga bevosita ishora qiladi. Teodoraning otasi bir lahzada Odisseyga, onasi esa Penelopaga o‘xshatiladi, keyinchalik Teodoraning o‘zi sayohatni amalga oshirishda Odisseyga aylanadi. V.Breydi ta’kidlaganidek, Teodora xuddi Odissey Itakani izlagani kabi xayoliy vataniga, orzu qilingan Meroyga qaytishga intiladi. Tadqiqotchi olim N.Freyning *arxetipik* nazariyasiga ko‘ra, asarning uch qismi ajralish, poklanish, qaytish kabi bosqichlarga bo‘linadi va har bir qismda ya’ni Avstraliya, Yevropa, Amerikada u turli xil qiyinchiliklarga, sinovlarga duch keladi [Brady, 1981].

XULOSA

P.Uaytning “Xolaning hikoyasi” romani ilk nashr etilgan paytdan boshlab ko‘plab kitobxonlarni hayratga solgan bo‘lsa, bugungi kunda u o‘zining simvollarga boyligi, psixologik murakkabligi va mistik (sirli) obrazlar bilan to‘yinganligi sababli adabiy tanqidchilar va falsafa bilan qiziqadigan tadqiqotchilar e’tiborini jalb qilib kelmogda. Mazkur asar yozuvchining anglab bo‘lmas haqiqat, ruhiy iztirob kabi ichki kechinmalarni ifodalashda simvollar, adabiy obrazlar va asarning murakkab tuzilishi orqali adabiyotda yangilik qilishga bo‘lgan intilishining yorqin namunasi hisoblanadi.

Meroy uyi, ko‘zgu va eshiklar, qirg‘iy, chaqmoq, multiq, nautilus chig‘anog‘i, qora atirgul, kaktus, kabi simvollar nafaqat tasviriy vosita, balki Teodora ruhiy kechinmalarining tashqi ko‘rinishiga aylangan semantik vositalardir. Ushbu ramzlar orqali muallif o‘z qahramonining ichki iztirobini, yolg‘izligini va ruhiy yuksalish bosqichlarini ifodalaydi. Ayniqsa, uch bosqichli kompozitsiya (Meroë, Jardin Exotique, Holstius) mifologik sayohat strukturasi asosida tashkil etilgan bo‘lib, Teodoraning shaxsiy kechinmalari orqali butun insoniyatning ichki og‘riqlarini umumiy kontekstda tasvirlaydi.

Asar oxirida Teodoraning jamiyatdan ajralgan, *g‘ayritabiiy* holati ko‘plab o‘quvchilar tomonidan *telbalik* sifatida talqin qilinishi mumkin. Biroq chuqur tahlil shuni ko‘rsatadiki, bu holat aslida uning ruhiy o‘zligiga yetib borishidagi yuksak ma’naviyatini bildiradi. Demak, P.Uayt o‘z qahramoni orqali ichki haqiqat, telbalik va ilohiy idrok darajasini aks ettirgan. Ushbu yondashuv yozuvchini nafaqat adabiy tafakkur doirasida, balki falsafiy va ekzistensial tafakkur kontekstida ham o‘ziga xos mavqega ega ijodkor sifatida namoyon etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, P.Uayt simvollarni Yungning arxetiplar nazariyasi, Eliadning mifologik konsepsiyasi, Freyning strukturaviy va Rikorning germenevtik qarashlari asosida shakllantirgan badiiy asar darajasiga olib chiqqan. Mazkur maqolada P.Uaytning “Xolaning hikoyasi” asaridagi simvollar ilk bor tipologik yondashuv asosida tahlil qilindi. Simvollarning psixologik, diniy, mifologik va germenevtik talqlari ko‘rib chiqildi. Har bir simvolning badiiy funksiyasi ochib berildi va jadval asosida tipologik tarzda tasniflandi. Ushbu tahlil P.Uayt ijodini boshqa adiblarning asarlarida simvollarni talqinida qiyosiy tahlil qilish uchun amaliy vosita bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ackland, M. & Wolfe, P.(2007) "*Patrick White.*" *Nobel Prize Laureates in Literature*, Part 4, Gale, Dictionary of Literary Biography Vol. 332. <https://www.gale.com/intl/databases-explored/literature/patrick-white>

2. Arimitsu, Y. (1985). *Finding a place: Landscape and the search for identity in the early novels of Patrick White* (Doctoral dissertation, Australian National University). <https://doi.org/10.25911/5d78db7611fd5>
3. Ashcroft, B. (2018). *Magda meets Theodora: Language and interiority in The Aunt's Story and In the Heart of the Country*. *Australian Literary Studies*, 33(1), 1–15. <https://doi.org/10.20314/als.b53a824d26>
4. Beston, J. B., & Beston, R. M. (1975). *The several lives of Theodora Goodman: The "Jardin Exotique" section of Patrick White's The Aunt's Story*. *The Journal of Commonwealth Literature*, 9, 1–13. <https://doi.org/10.1177/002198947500900302>
5. Brady, Veronica, (1981). *A Crucible of Prophets, Australians and the Question of God*. Sydney: Australian and New Zealand Studies in Theology and Religion (chapter 4, *Patrick White and the Difficult God*, 69-89).
6. Cambridge University Press. (2021). *A dictionary of literary symbols* (2nd ed.; M. Ferber, Ed.). <https://www.cambridge.org>
7. Carl G. Jung (1964) *Man and His Symbols*. First edition The United States of America
8. Chawla, L., & Gaurav, K. (2022). *Transcendentalism of White in The Aunt's Story: A critical study*. *Journal of Positive School Psychology*, 6(4), 2508–2514. <http://journalppw.com/>
9. Eliade, M. (1963). *The sacred and the profane* (W. R. Trask, Trans.). Harcourt. https://monoskop.org/images/b/b1/Eliade_Mircea_The_Sacred_and_The_profane_1963.pdf
10. Eliade, M. (1959). *Cosmos and History: Myth of Eternal Return* (Willard R. Trans.) Harper Torchbooks.
11. Frye, N. (1957). *Anatomy of criticism: Four essays* (2nd ed.). Princeton University Press. https://monoskop.org/images/5/59/Frye_Northrop_Anatomy_of_Criticism_Four_Essays_2000.pdf
12. Glatch, S. (2025). Symbolism in literature: What is symbolism and how to use it in your writing, April 24, 2025. <https://writers.com/what-is-symbolism-in-literature>
13. Hansson, K. (2001) *Patrick White – Existential explorer*. <https://www.nobelprize.org/prizes/literature/1973/white/article/>
14. Henderson, J. L. (1964). *Ancient myths and modern man*. In C. G. Jung (Ed.), *Man and his symbols* (pp. 104–157). Aldus Books. https://www.academia.edu/125841688/Man_and_his_Symbols_Carl_G_Jung
15. Lever, S. (2003). *Patrick White and alchemy*. *Australian Literary Studies*, 21(2), 215–226. <https://link.gale.com/apps/doc/A111801080/LitRC?u=anon-a250aabc&sid=googleScholar&xid=db20da45>
16. Lloyd da Silva, M. C. (1995). *Self and (m)other in Patrick White's fiction: An object relations approach* (Doctoral dissertation, Edith Cowan University). <https://ro.ecu.edu.au/theses/1178>
17. Loney, D. (1982). *Theodora Goodman and the minds of mortals: Patrick White's The Aunt's Story*. *ESC: English Studies in Canada*, 8(4), 483–500. <https://dx.doi.org/10.1353/esc.1928.0007>
18. Meghwel, R.Sh. (2021). *A study of symbolism in works of Patrick White*. Doctor of Philosophy Thesis. <https://assets.vmu.ac.in/DT/Ravi-Shanker-Meghwel.pdf>
19. Metzl, J. M. (2019). *What guns mean: The symbolic lives of firearms*. *Palgrave Communications*, 5(1), 1–5. <https://doi.org/10.1057/s41599-019-0240-y>
20. Ochilov, O.M. (2018). *VII-X asrlar Tang davri shariyatida ramzlar senmantikasi*. PhD dissertatsiyasi. Toshkent.
21. Panaghis, A. (1997). *Questing for identity in Patrick White's The Aunt's Story*. *International Fiction Review*, 24, 30–35. https://www.academia.edu/49065174/Questing_for_Identity_in_Patrick_Whites_The_Aunts_Story
22. Patrick White. (1994). *The Aunt's Story* (Original work published 1948).
23. Pellauer, D., & Dauenhauer, B. (2025). *Paul Ricoeur*. In E. N. Zalta & U. Nodelman (Eds.), *The Stanford encyclopedia of philosophy* (Spring 2025 Edition). <https://plato.stanford.edu/>

- archives/spr2025/entries/ricoeur/
24. Ricoeur, P. (1967) *The Symbolism of Evil*. Translated by Buchanan, E. Beacon Press.
 25. Riem Natale, A. (2016). *Theodora as an unheard prophetess in Patrick White's The Aunt's Story*. Le Simplegadi, 14(16), 37–49. <https://doi.org/10.17456/SIMPLE-41>
 26. Schermbrucker, W. G. (1966). *The vision of alienation: An analytical approach to the works of Patrick White* (Master's thesis). University of British Columbia. <https://open.library.ubc.ca/collections/ubctheses/831/items/1.0104727>
 27. Sharipova, D.A. (2025) *Ingliz va o'zbek adabiyotida ramzlarning lingvopoetik va lingvokulturologik tadqiqi*. PhD dissertatsiya avtoreferati. Buxoro.
 28. Tacey, D. J. (1979). *Patrick White: Misconceptions about Jung's influence*. Australian Literary Studies, 9(2), 135–142. <https://doi.org/10.20314/als..3d2c53f165>
 29. Umarov, H. (2004). *Adabiyotshunoslik nazariyasi*. Toshkent. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
 30. Wittmann, A. (2015). *The doubling of reality in Patrick White's The Aunt's Story and Paul Schreber's Memoirs of My Nervous Illness*. In I. Henderson & A. Lang (Eds.), *Patrick White beyond the grave: New critical perspectives* (pp. 141–154). Anthem Press.
 31. The Editors of Encyclopaedia Britannica (2025, September 9). Patrick White. Encyclopaedia Britannica. <https://www.britannica.com/biography/Patrick-White>
 32. "Symbolic Objects and Psychological States - The Aunt's Story." *eNotes Publishing*, edited by eNotes Editorial, eNotes.com, Inc., 11 Sep. 2025 <https://www.enotes.com/topics/aunts-story/themes#themes-symbolic-objects-and-psychological-states>
 33. <https://patrickwhitecatalogue.com/novels/aunt/>
 34. <https://mymythos.org/archetypes/the-nautilus-archetype-meaning-symbolism>

REFERENCES:

1. Ackland, M. & Wolfe, P.(2007) "*Patrick White*." *Nobel Prize Laureates in Literature*, Part 4, Gale, Dictionary of Literary Biography Vol. 332. <https://www.gale.com/intl/databases-explored/literature/patrick-white>
2. Arimitsu, Y. (1985). *Finding a place: Landscape and the search for identity in the early novels of Patrick White* (Doctoral dissertation, Australian National University). <https://doi.org/10.25911/5d78db7611fd5>
3. Ashcroft, B. (2018). *Magda meets Theodora: Language and interiority in The Aunt's Story and In the Heart of the Country*. Australian Literary Studies, 33(1), 1–15. <https://doi.org/10.20314/als.b53a824d26>
4. Beston, J. B., & Beston, R. M. (1975). *The several lives of Theodora Goodman: The "Jardin Exotique" section of Patrick White's The Aunt's Story*. The Journal of Commonwealth Literature, 9, 1–13. <https://doi.org/10.1177/002198947500900302>
5. Brady, Veronica, (1981). *A Crucible of Prophets, Australians and the Question of God*. Sydney: Australian and New Zealand Studies in Theology and Religion (chapter 4, *Patrick White and the Difficult God*, 69-89).
6. Cambridge University Press. (2021). A dictionary of literary symbols (2nd ed.; M. Ferber, Ed.). <https://www.cambridge.org>
7. Carl G. Jung (1964) *Man and His Symbols*. First edition The United States of America
8. Chawla, L., & Gaurav, K. (2022). *Transcendentalism of White in The Aunt's Story: A critical study*. Journal of Positive School Psychology, 6(4), 2508–2514. <http://journalppw.com/>
9. Eliade, M. (1963). *The sacred and the profane* (W. R. Trask, Trans.). Harcourt. https://monoskop.org/images/b/b1/Eliade_Mircea_The_Sacred_and_The_profane_1963.pdf
10. Eliade, M. (1959). *Cosmos and History: Myth of Eternal Return* (Willard R. Trans.) Harper Torchbooks.
11. Frye, N. (1957). *Anatomy of criticism: Four essays* (2nd ed.). Princeton University Press. https://monoskop.org/images/5/59/Frye_Northrop_Anatomy_of_Criticism_Four_Essays_2000.pdf

12. Glatch, S. (2025). Symbolism in literature: What is symbolism and how to use it in your writing, April 24, 2025. <https://writers.com/what-is-symbolism-in-literature>
13. Hansson, K. (2001) *Patrick White – Existential explorer*. <https://www.nobelprize.org/prizes/literature/1973/white/article/>
14. Henderson, J. L. (1964). *Ancient myths and modern man*. In C. G. Jung (Ed.), *Man and his symbols* (pp. 104–157). Aldus Books. https://www.academia.edu/125841688/Man_and_his_Symbols_Carl_G_Jung
15. Lever, S. (2003). *Patrick White and alchemy*. *Australian Literary Studies*, 21(2), 215–226. <https://link.gale.com/apps/doc/A111801080/LitRC?u=anon-a250aabc&sid=googleScholar&xid=db20da45>
16. Lloyd da Silva, M. C. (1995). *Self and (m)other in Patrick White's fiction: An object relations approach* (Doctoral dissertation, Edith Cowan University). <https://ro.ecu.edu.au/theses/1178>
17. Loney, D. (1982). *Theodora Goodman and the minds of mortals: Patrick White's The Aunt's Story*. *ESC: English Studies in Canada*, 8(4), 483–500. <https://dx.doi.org/10.1353/esc.1928.0007>
18. Meghwel, R.Sh. (2021). *A study of symbolism in works of Patrick White*. Doctor of Philosophy Thesis. <https://assets.vmu.ac.in/DT/Ravi-Shanker-Meghwal.pdf>
19. Metzl, J. M. (2019). *What guns mean: The symbolic lives of firearms*. *Palgrave Communications*, 5(1), 1–5. <https://doi.org/10.1057/s41599-019-0240-y>
20. Ochilov, O.M. (2018). *The Semantics of Symbols in the Poetry of the Tang Dynasty (7th–10th centuries)*. PhD dissertation. Tashkent.
21. Panaghis, A. (1997). *Questing for identity in Patrick White's The Aunt's Story*. *International Fiction Review*, 24, 30–35. https://www.academia.edu/49065174/Questing_for_Identity_in_Patrick_Whites_The_Aunts_Story
22. Patrick White. (1994). *The Aunt's Story* (Original work published 1948).
23. Pellauer, D., & Dauenhauer, B. (2025). *Paul Ricoeur*. In E. N. Zalta & U. Nodelman (Eds.), *The Stanford encyclopedia of philosophy* (Spring 2025 Edition). <https://plato.stanford.edu/archives/spr2025/entries/ricoeur/>
24. Ricoeur, P. (1967) *The Symbolism of Evil*. Translated by Buchanan, E. Beacon Press.
25. Riem Natale, A. (2016). *Theodora as an unheard prophetess in Patrick White's The Aunt's Story*. *Le Simplegadi*, 14(16), 37–49. <https://doi.org/10.17456/SIMPLE-41>
26. Schermbrucker, W. G. (1966). *The vision of alienation: An analytical approach to the works of Patrick White* (Master's thesis). University of British Columbia. <https://open.library.ubc.ca/collections/ubctheses/831/items/1.0104727>
27. Sharipova, D.A. (2025). *Linguopoetic and Linguocultural Study of Symbols in English and Uzbek Literature*. PhD dissertation abstract. Bukhara, 2025.
28. Tacey, D. J. (1979). *Patrick White: Misconceptions about Jung's influence*. *Australian Literary Studies*, 9(2), 135–142. <https://doi.org/10.20314/als..3d2c53f165>
29. Umarov, H. (2004). *Theory of Literary Criticism*. Tashkent: A. Qodiriy National Heritage Publishing House.
30. Wittmann, A. (2015). *The doubling of reality in Patrick White's The Aunt's Story and Paul Schreber's Memoirs of My Nervous Illness*. In I. Henderson & A. Lang (Eds.), *Patrick White beyond the grave: New critical perspectives* (pp. 141–154). Anthem Press.
31. The Editors of Encyclopaedia Britannica (2025, September 9). Patrick White. *Encyclopaedia Britannica*. <https://www.britannica.com/biography/Patrick-White>
32. "Symbolic Objects and Psychological States - The Aunt's Story." *eNotes Publishing*, edited by eNotes Editorial, eNotes.com, Inc., 11 Sep. 2025 <https://www.enotes.com/topics/aunts-story/themes#themes-symbolic-objects-and-psychological-states>
33. <https://patrickwhitecatalogue.com/novels/aunt/>
34. <https://mymythos.org/archetypes/the-nautilus-archetype-meaning-symbolism>